

O'ZBEKISTONDA "OPEN BANKING" BANK BIZNES MODELIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLI

Otajonov Otamurod Erkinboyevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

otajonovotamurod1010@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15389722>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi bank tizimida zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida "Open Banking" — ochiq bank xizmatlari modelining joriy etilishi va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada avvalo Open Banking modelining nazariy mohiyati, funksional komponentlari, global moliyaviy texnologiyalar bilan aloqasi va mijoz markazlashgan yondashuvga asoslanganligi chuqur tahlil qilinadi.

Xususan, Yevropa Ittifoqida PSD2 direktivasi asosida shakllangan tizim, Osiyo mamlakatlarida bank-fintech integratsiyasi va AQShda bozor asosida rivojlangan ochiq moliyaviy ekotizim misollarida xalqaro amaliyat o'rganiladi. O'zbekiston kontekstida Open Banking'ning huquqiy asoslari, infratuzilmaviy tayyorgarlik holati, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan raqamli moliya siyosatlari, shuningdek, tijorat banklarining — jumladan "O'zmilliybank" AJning — raqamli platformalarga o'tish tajribasi muhokama qilinadi. Mijoz ma'lumotlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik, API almashinuvi, fintech startaplar bilan hamkorlik va banklararo raqobat kabi elementlar tizimli tarzda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Open Banking, ochiq bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, API (Application Programming Interface), fintech, moliyaviy texnologiyalar, mijoz ma'lumotlari xavfsizligi, banklararo raqobat, O'zbekiston bank tizimi, elektron moliya, Markaziy bank siyosati, ma'lumot almashinuvi, kiberxavfsizlik, mobil bank ilovalari, moliyaviy inklyuziya, "O'zmilliybank" AJ tajribasi.

PROSPECTS FOR USING THE "OPEN BANKING" BANKING BUSINESS MODEL IN UZBEKISTAN

Abstract. This scientific article is devoted to the analysis of the implementation and development prospects of the Open Banking model in the framework of modern digital transformation processes in the banking system of the Republic of Uzbekistan. The article first of all deeply analyzes the theoretical essence of the Open Banking model, its functional components, its connection with global financial technologies and its basis on a customer-centric approach. In particular, international practice is studied in the examples of the system formed on the basis of the PSD2 directive in the European Union, bank-fintech integration in Asian countries and the open financial ecosystem developed on a market basis in the USA. In the context of Uzbekistan, the legal framework of Open Banking, the state of infrastructural readiness, digital financial policies pursued by the Central Bank, as well as the experience of commercial banks — including Uzmilliybank — in transition to digital platforms are discussed. \

Elements such as customer data protection, cybersecurity, API exchange, cooperation with fintech startups and interbank competition are systematically analyzed.

Keywords: Open Banking, open banking services, digital transformation, API (Application Programming Interface), fintech, financial technologies, customer data security,

interbank competition, banking system of Uzbekistan, electronic finance, Central Bank policy, information exchange, cybersecurity, mobile banking applications, financial inclusion, experience of Uzmilliybank JSC.

Kirish: Raqamli transformatsiya global moliya sektorining ustuvor yo‘nalishiga aylanib borayotgan bir paytda, bank xizmatlarini ko‘rsatish uslublarida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shulardan eng e’tiborga loyiqi bu – Open Banking modeli bo‘lib, u banklar, fintech kompaniyalar va boshqa uchinchi tomon xizmat ko‘rsatuvchilari o‘rtasida mijoz ruxsati asosida ma’lumot almashinuvi va integratsiyani nazarda tutadi. Ushbu model an’anaviy yopiq bank tizimlaridan farqli ravishda, raqobatni kuchaytiradi, innovatsion moliyaviy xizmatlarni rivojlantiradi va mijozlarning moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Yevropa Ittifoqida PSD2 direktivasi asosida, Osiyo mamlakatlarida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik orqali, AQShda esa bozor tamoyillari asosida keng joriy etilayotgan Open Banking tajribasi, bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyadan chetda qolmagan holda, moliyaviy sektorni modernizatsiyalash, mijozga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim islohotlarni boshladi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimida Open Banking’ning joriy etilishi, uni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy asoslar, texnologik infratuzilma va banklarning raqamli transformatsiyaga tayyorlik darajasi o‘rganiladi. Xususan, “O‘zmilliybank” AJ tajribasi misolida, ushbu modelni joriy etishning amaliy jihatlari va mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Open Banking modelining afzalliklari bilan bir qatorda yuzaga chiqadigan xavflar va muammolar ham ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda bank tizimining raqamli transformatsiyasi va Open Banking modelining joriy etilishi ko‘plab mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar sektorida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayon global miqyosda ko‘plab olimlar tomonidan nazariy, empirik va amaliy jihatdan chuqr tadqiq qilinmoqda. Xususan, ushbu masalada so‘ngi yillarda turli mintaqaviy olimlarning ishlari bank-mijoz munosabatlarini qayta shakllantiruvchi omillarni ochib bergen.

O‘zbekistonlik olimlardan Nazarov A. o‘zining “O‘zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi: muammolar va imkoniyatlar” nomli maqolasida raqamli moliya xizmatlarining joriy etilishi bilan bog‘liq infratuzilmaviy va regulyatorlik masalalarga e’tibor qaratadi. U Open Banking modelini fintech bilan hamkorlik doirasida tahlil qilgan. Khashimov B. va Tursunov M. esa innovatsion bank xizmatlari orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini yoritib, raqamli interfeyslar va API asosidagi ishlovchi xizmatlarning imkoniyatlarini ochib bergen.

Tadjibayeva S. o‘z tadqiqotida O‘zbekiston bank tizimida raqamli integratsiyaning huquqiy asoslarini chuqr o‘rganadi. U tijorat banklarining API joriy etishdagi qonunchilik bo‘shliqlari va raqamli xavfsizlik tahdidlarini tahlil qiladi.

Shuningdek, Akhmedov D. Open Banking’ni milliy miqyosda joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini yoritgan holda, O‘zbekiston moliyaviy tizimida ushbu modelni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Rossiyalik olima Beresina A.B. o‘zining “Открытое банковское обслуживание в условиях цифровизации экономики” asarida Open Banking’ning Rossiya sharoitida qanday joriy etilayotgani, regulyatorlarning roli va mijoz ma’lumotlarining xavfsizligi haqida tahlil fikrlar bildiradi. U Rossiya Markaziy bankining API standarti bo‘yicha tavsiyalarini alohida tahlil qiladi.

Yevropalik iqtisodchi X. Vives “Digital Disruption in Banking” nomli asarida PSD2 direktivasi asosida Yevropa Ittifoqida bank tizimi qanday ochiqlikka erishganini va ushbu model orqali raqobat muhiti qanday o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. U monopoliyalarning zaiflashuvi va fintechlarning roli ortganini asosli dalillar bilan ko‘rsatib bergen.

Buyuk Britaniyadagi olimlar Zetzsche D.A., Buckley R.P. va Arner D.W. fintech’ning yuksalishini, Open Banking’ning moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi rolini va xavf-xatarlarga qarshi regulyatorlik siyosatini keng qamrovli o‘rgangan. Ularning izlanishi regulyatorlarning texnologik innovatsiyalarni qanday qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatadi.

BIS va Harvard vakillari Gambacorta L., Rau R., Zhang J. tomonidan olib borilgan tadqiqotda Open Banking modeli asosida bank xizmatlarining narxlari, foydalanuvchilar roziligi va xizmat sifati bo‘yicha empirik tadqiqotlar taqdim etilgan. Ular mijoz foydasi va raqobatni o‘lchash indikatorlarini aniqlagan.

Janubiy Koreyalik olimlar Lee, I. va Shin, Y.J. fintech ekotizimini o‘rganib, Open Banking asosida banklar va startaplar o‘rtasida qanday sinergiya yuzaga kelishini chuqur tahlil qilgan. Ularning ishi O‘zbekiston uchun ayniqsa qiyosiy yondashuv jihatidan muhim.

Xitoy olimlari Chen L. va Li X. Open Banking’ning iste’molchi ishonchiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rgangan. Ular strategik joylashuv va texnologik quvvat jihatidan Xitoy banklari qanday raqobat ustunligiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ozarbayjonlik olim Mammadov A. Kavkaz mintaqasida Open Banking modelining joriy etilishi va uni sinov tariqasida qo‘llash natijalarini tahlil qiladi. U ayniqsa O‘zbekiston sharoitiga o‘xshash raqamli va qonunchilik infratuzilmasini solishtirishga e’tibor qaratagan.

AQShlik iqtisodchi Johnson K. esa Open Banking’ning AQShda texnologik kompaniyalar tashabbusi bilan shakllanganini, ammo regulyatorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida modelda fragmentatsiya yuzaga kelganini asoslaydi. Bu esa u yerda xavfsizlik va maxfiylik muammolarini yanada keskinlashtirgan.

Evans D. & Schmalensee R. o‘zlarining “Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms” asarida Open Banking tizimini ko‘p tomonlama platforma sifatida talqin qilgan. Ular bank va fintech o‘rtasidagi interfeyslar orqali yaratilgan qiymat zanjiri va xizmatlar diversifikatsiyasini tahlil qilgan.

Ayadi R. tomonidan olib borilgan izlanishlar Yevropa Ittifoqi davlatlarida Open Banking regulyatsiyasi va mijozlarning rozilik asosidagi ma’lumot almashinuvi tajribalarini solishtiradi.

Muallif foydalanuvchi huquqlari va ularning real himoyasi orasidagi tafovutlarga urg‘u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bank sektorining raqamli transformatsiyasi va “Open Banking” modelining joriy etilishi – O’zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun murakkab, ko’p qirrali va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni talab qiluvchi sohaga aylanib bormoqda. Shu sababli, ushbu ilmiy tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar sintezidan foydalanildi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, komparativ (taqqoslov) tahlil, huquqiy-normativ tahlil va empirik-analitik usullar qo’llanildi. Tizimli yondashuv asosida O’zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni bosqichma-bosqich o’rganildi.

Ushbu yondashuv orqali banklar, regulyatorlar, fintech kompaniyalar va mijozlar o’rtasidagi o’zaro aloqalar o’rganilib, Open Banking modelining milliy moliyaviy ekotizimga integratsiyalashushi tahlil qilindi. Bu metod orqali bank xizmatlarini ko’rsatishdagi mavjud amaliyot va Open Banking’ning innovatsion model sifatidagi farqlari aniqlashtirildi.

Komparativ (qiyyosiy) tahlil yondashuvi orqali O’zbekiston holati Yevropa Ittifoqi (PSD2 modeli), AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya kabi ilg’or davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bu tahlil orqali O’zbekiston bank tizimi Open Banking uchun qaysi sohalarda yetarlicha tayyor, qaysi infratuzilmaviy yoki qonunchilik jihatlarida orqada ekanligi aniqlanishi mumkin bo’ldi.

Xususan, API standarti, autentifikatsiya protokollari, foydalanuvchi ma’lumotlarining himoyasi va uchinchi tomon xizmat ko’rsatuvchilar bilan aloqalarni tartibga soluvchi qonuniy asoslar solishtirma tahlilga tayanib baholandi.

Huquqiy-normativ tahlil metodikasi asosida Open Banking’ni joriy etish uchun zarur bo’lgan qonunchilik, regulyativ hujjatlar, Markaziy bank ko’rsatmalari va xalqaro huquqiy standartlar o’rganildi. Bu usul orqali ayni paytda O’zbekistonda mavjud bo’lgan regulyatoriy tuzilma qanday bosqichda ekani va uni qanday takomillashtirish zarurligi aniqlashtirildi. PSD2, GDPR kabi xalqaro hujjatlar asosida shaffoflik, rozilik asosida ma’lumot uzatish va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlari O’zbekiston qonunchiligi bilan qiyosiy asosda tahlil qilindi.

Empirik-analitik metod doirasida yirik tijorat banklarining (xususan, “O’zmilliybank” AJ) so’nggi yillarda amalga oshirgan raqamli loyihalari, mobil ilovalar, elektron to’lovlar statistikasi, mijozlar sonining o’sishi, API xizmatlarining test ko’rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu empirik asos orqali Open Banking’ga tayyorgarlik darajasi amaliy ko’rsatkichlar bilan isbotlandi.

Statistik ma’lumotlar, moliyaviy hisobotlar, Markaziy bank ochiq manbalari va tijorat banklarining raqamli platformalari orqali olingan faktlar tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi o’zaro bog’langan bir nechta uslublar asosida tuzilgan bo’lib, bu yondashuv O’zbekiston bank tizimining Open Banking modeliga o’tish jarayonini kompleks baholash, real imkoniyat va xavflarni aniqlash, va eng muhimi – ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli transformatsiya jarayonida banklarning moliyaviy salohiyati, xizmat ko’rsatish hajmi va investitsiya imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

Open Banking’ning muhim natijalaridan biri — bu mijozlar uchun qulay, tezkor va raqamlashtirilgan xizmatlarni taqdim etishdir. Quyidagi jadvalda “O’zmilliybank” AJ foydalanuvchilarining mobil va internet-banking xizmatlaridan foydalanish bo’yicha statistik ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

“O‘zmilliybank” AJ mijozlarining raqamli faoliyati

| Ko‘rsatkichlar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|--|-------|-------|-------|-------|-------|
| Mobil ilova foydalanuvchilari soni (mln) | 1.20 | 2.00 | 2.99 | 3.16 | 3.74 |
| Internet-banking foydalanuvchilari soni (mln) | 0.60 | 1.00 | 1.20 | 1.50 | 1.80 |
| Tranzaksiyalar soni (mln) | 0.45 | 0.70 | 1.00 | 0.98 | 0.97 |
| Tranzaksiyalar hajmi (mln \$) | 320.0 | 500.0 | 866.9 | 669.1 | 776.4 |
| Onlayn xizmatlardan foydalanganlik foizi (%) | 21 | 30 | 38 | 52 | 65 |
| O‘rtacha tranzaksiya miqdori (\$) | 711.1 | 714.3 | 866.9 | 682.7 | 800.4 |
| API orqali tranzaksiyalar ulushi (%) | 0.0 | 5.0 | 12.0 | 18.5 | 26.0 |
| Yangi raqamli xizmatlar soni | 1 | 2 | 4 | 6 | 9 |
| Mobil ilova orqali kredit rasmiylashtirish soni (ming) | 2.1 | 4.6 | 6.8 | 8.9 | 11.3 |
| Raqamli tranzaksiyalarning umumiy ulushi (%) | 10 | 25 | 40 | 58 | 72 |
| Mobil banking orqali to‘lovlar soni (mln) | 0.3 | 0.8 | 1.5 | 2.6 | 4.2 |

Manba: <https://nbu.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tuzildi>.

So‘nggi besh yillikda “O‘zmilliybank” AJ raqamli transformatsiya jarayonida izchil yutuqlarga erishgan bo‘lib, bu jarayon Open Banking modeliga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvni tayyorlamoqda. 1-jadvaldagagi statistik ko‘rsatkichlar ushbu transformatsiyaning asosiy jihatlarini yoritib beradi.

Avvalo, mobil ilova va internet-banking foydalanuvchilari sonining ortishi bank xizmatlaridan foydalanish odatlarining keskin o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Agar 2020-yilda mobil ilova foydalanuvchilari 1,2 millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,74 millionga yetgan. Internet-banking foydalanuvchilari soni esa 0,6 milliondan 1,8 milliongacha o‘sgan. Bu — bank mijozlarining raqamli xizmatlarga ishonchi ortganidan dalolat beradi.

Shuningdek, tranzaksiyalar soni va hajmi bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham barqaror o‘sishga ega. 2020-yilda atigi 0,45 million tranzaksiya amalga oshirilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,97 millionga yetgan. Tranzaksiya hajmi esa 320 million AQSh dollaridan 776 million AQSh dollarigacha o‘sdi. Bunda o‘rtacha tranzaksiya miqdorining o‘sishi (2024-yilda 800,4 dollar) ham Open Banking orqali amalga oshirilayotgan yuqori qiymatlari moliyaviy operatsiyalarning kengayganidan darak beradi.

API orqali tranzaksiyalar ulushi 2020-yildagi 0% darajadan 2024-yilda 26% gacha oshgan bo‘lib, bu “O‘zmilliybank” AJ tomonidan Open Banking infratuzilmasi bosqichma-bosqich joriy etilayotganining aniq belgisi hisoblanadi. Bank tomonidan taqdim etilgan yangi raqamli xizmatlar soni ham 5 yil davomida 1 tadan 9 taga yetgani bu yo‘nalishdagi faol innovatsion siyosatni tasdiqlaydi.

Boshqa muhim ko‘rsatkichlardan biri — mobil ilova orqali kredit rasmiylashtirish soni bo‘lib, u 2020-yildagi 2,1 mingdan 2024-yilda 11,3 minggacha o‘sgan. Bu esa bank xizmatlarining nafaqat to‘lovlar, balki kreditlash segmentida ham to‘liq raqamli ko‘rinishga o‘tayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, raqamli tranzaksiyalarning umumiy ulushi 2020-yilda 10% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 72% ga yetgan. Bu esa bank mijozlarining deyarli to‘rtadan uch qismi an’anaviy xizmatlar o‘rniga raqamli yechimlardan foydalanayotganini anglatadi. Mobil banking orqali amalga oshirilgan to‘lovlar soni 2020-yildagi 0,3 milliondan 2024-yilda 4,2 millionga yetgan. Bu tendensiya foydalanuvchilarning real vaqtli operatsiyalarni afzal ko‘rayotganini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda “O‘zmilliybank” AJ’ning so‘nggi uch yillik asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan:

2-jadval

“O‘zmilliybank” AJning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari (trln so‘mida)

| Ko‘rsatkichlar | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil |
|-------------------------|----------|----------|----------|
| Aktivlar | 100,0 | 110,0 | 118,0 |
| Kredit portfeli | 85,0 | 90,0 | 95,3 |
| Umumi kapital | 15,0 | 16,0 | 17,7 |
| Mijoz depozitlari | 50,0 | 55,0 | 62,0 |
| To‘lov xizmatlari hajmi | 8,0 | 12,0 | 17,5 |

Manba: <https://nbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi>.

Mazkur ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, bankning aktivlar bazasi va kreditlash hajmi yildan-yilga ortmoqda. Ayniqsa, mijoz depozitlari va to‘lov xizmatlari bo‘yicha sezilarli o‘sish qayd etilgan. Bu bankka raqamli texnologiyalar asosida yangi xizmatlarni joriy etish imkonini beradi.

Open Banking modelining yurak urishi – bu ochiq API tizimi hisoblanadi. API’lar orqali uchinchi tomon kompaniyalar bilan hamkorlik, xizmatlarni kengaytirish va yangi biznes modellarni yaratish imkoniyati tug‘iladi. Quyidagi jadvalda “O‘zmilliybank” AJ tomonidan 2022–2024-yillar davomida yo‘lga qo‘yilgan API xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan:

3-jadval

“O‘zmilliybank” AJ API xizmatlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar

| Ko‘rsatkichlar | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil |
|--|----------|----------|----------|
| API xizmatlari soni | 5 | 10 | 15 |
| API orqali tranzaksiyalar soni (mln) | 1,0 | 2,5 | 4,0 |
| API asosida xizmat ko‘rsatuvchi fintech kompaniyalar | 2 | 5 | 8 |
| API integratsiyalangan xizmatlar soni | 3 | 6 | 10 |
| API orqali o‘tkazilgan to‘lovlar hajmi (trln so‘m) | 0,5 | 1,2 | 2,3 |

Manba: <https://nbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi>.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “O‘zmilliybank” tomonidan API xizmatlariga e’tibor keskin oshgan. Bu esa Open Banking infratuzilmasini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Fintech kompaniyalar bilan integratsiyaning kuchayishi esa bankning ekotizim asosida ishlashga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama: Open Banking — bu nafaqat texnologik innovatsiya, balki bank-mijoz munosabatlarini tubdan o‘zgartiruvchi strategik model sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda ushbu modelning bosqichma-bosqich joriy etilishi mamlakat moliyaviy tizimining ochiqlik, raqobat va inklyuzivlik tamoyillariga sodiq qolayotganidan dalolat beradi. Biroq, real tahlil va amaliy statistik ko‘rsatkichlar asosida ushbu modelni joriy etish jarayonida bir qator muhim imkoniyatlar bilan birga muammolar va xavflar ham mavjudligini ko‘rsatadi.

“O‘zmilliyybank” AJ misolida raqamli xizmatlar ko‘lami, foydalanuvchilarining faolligi, API orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar ulushi va yangi xizmatlar sonining ortib borishi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Xususan, 2020–2024-yillar oralig‘ida mobil ilova foydalanuvchilari soni 1,2 milliondan 3,74 millionga yetgani, API orqali tranzaksiyalar ulushi esa 0% dan 26% gacha oshgani — texnologik rivojlanish va mijozlar ishonchining natijasidir.

Bu jarayonlar bank xizmatlarini markazsizlashtirish, foydalanuvchilarga ko‘proq nazorat va tanlov imkoniyatini berish yo‘lida muhim qadamdir.

Shu bilan birga, Open Banking modelining to‘liq amalga oshirilishi uchun hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalar mavjud. Birinchidan, O‘zbekistonda hali to‘liq shakllanmagan API standartlari va normativ-huquqiy baza raqamli banklararo integratsiyani to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi. Mijoz ma’lumotlarining almashinuvi uchun rozilik (consent) asosidagi mexanizmlar, kiberxavfsizlik protokollari va uchinchi tomon provayderlari (TPP) uchun litsenziyalash talablarining aniq belgilanishi zarur.

Texnologik infratuzilmaning rivojlanish darajasi ham cheklov omili bo‘lib qolmoqda. API integratsiyasi talab qiladigan xizmatlar sonining ortishi bilan birga, real vaqtli monitoring, ma’lumot uzatish tezligi, autentifikatsiya va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq risklar kuchaymoqda. Masalan, Open Banking uchun zarur bo‘lgan OAuth2.0 yoki OpenID Connect kabi standartlar bo‘yicha bank tizimining tayyorgarligi hali yetarli darajada emas.

Foydalanuvchi tomonida ham muammolar mavjud. Aholining katta qismi, ayniqsa, yoshi katta va chekka hududlardagi foydalanuvchilar hali ham raqamli moliyaviy xizmatlarga nisbatan yetarli darajada moliyaviy va texnologik savodxonlikka ega emas. Bu esa banklarning Open Banking orqali taklif qilayotgan yangi xizmatlaridan to‘liq foydalanishini sekinlashtiradi.

Shu jihatdan, “O‘zmilliyybank” AJning so‘nggi yillarda yangi raqamli xizmatlarni joriy qilayotgani (2020-yildagi 1 xizmatdan 2024-yildagi 9 ta xizmatga), raqamli kreditlash, mobil banking va API xizmatlarini kengaytirayotgani davlat miqyosidagi boshqa banklarga ham namunaviy model sifatida xizmat qilmoqda. Ammo bu jarayonda texnologik vositalar va inson kapitali birgalikda harakat qilishi kerak.

Open Banking modelining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat bank tizimi ichida, balki milliy moliyaviy ekotizimda kompleks yondashuvni talab etadi. Raqamli transformatsiyani faqat texnologik modernizatsiya deb emas, balki foydalanuvchi huquqlarini kengaytiruvchi, raqobatni oshiruvchi va moliyaviy inklyuziyani ta’minlovchi siyosiy-iqtisodiy model sifatida qabul qilish lozim. Shundagina Open Banking O‘zbekiston moliyaviy sohasining strategik ustunlikka ega bo‘lgan innovatsion tayanchiga aylanishi mumkin.

Xulosa. O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda davom etayotgan bir paytda, Open Banking modeli ushbu transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida “O‘zmilliybank” AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda bankda raqamli xizmatlar — jumladan, API orqali xizmat ko‘rsatish, mobil banking, internet-banking, raqamli kreditlash va yangi xizmatlar soni bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan. 2020–2024-yillar davomida mobil ilova foydalanuvchilari sonining 1,2 milliondan 3,74 millionga o‘sishi, API orqali tranzaksiyalar ulushining 0% dan 26% gacha yetishi, shuningdek, yangi raqamli xizmatlar sonining 9 taga ortgani — bank infratuzilmasining Open Banking modelini qabul qilishga tayyorligini isbotlaydi. Shu bilan birga, bu raqamlar bank mijozlarining raqamli xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji va ishonchi ortib borayotganidan ham dalolat beradi.

Biroq, Open Banking’ning to‘liq ishlashi uchun quyidagi omillar dolzarb bo‘lib qolmoqda: normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, API va kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish, aholi va bank xodimlarining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish.

Shuningdek, fintech kompaniyalari bilan ochiq hamkorlikni kuchaytirish va regulyator tomonidan doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish zarur. O‘zbekiston bank tizimi uchun Open Banking modeli mijozga yo‘naltirilgan, raqobatbardosh va shaffof moliyaviy muhit yaratishning yangi bosqichi hisoblanadi. Ushbu model mamlakatda innovatsion moliyaviy ekotizimni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusida banklar va regulyatorlar tomonidan bu boradagi muvofiqlashtirilgan harakatlar Open Banking’ning real iqtisodiy samarasini ta’minlashi shubhasizdir.

REFERENCES

1. Nazarov A. (2020). O‘zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi: muammolar va imkoniyatlar. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya jurnali.
2. Khashimov B., Tursunov M. (2021). Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalar va mijozlar bilan ishlash tizimi. O‘zbekiston Banki Axborotnomasi, №4, 44–56.
3. Tadjibayeva S. (2023). O‘zbekiston bank tizimida raqamli integratsiyaning huquqiy asoslari. Raqamli iqtisodiyot jurnali, №1, 17–29.
4. Akhmedov D. (2024). Open Banking: O‘zbekiston bank tizimi uchun yangi imkoniyatlar. “Bank ishi” ilmiy-amaliy jurnali, №2, 31–45.
5. Березина А.В. (2018). Открытое банковское обслуживание в условиях цифровизации экономики. Финансовый журнал, №3, 112–120.
6. Иванов С.Н. (2021). Цифровизация банковского сектора и развитие финтех-экосистем в России. Вопросы экономики, №6, 58–69.
7. Федоров В.А. (2023). Open Banking как фактор трансформации банковских услуг. Банковское дело, №2, 90–102.
8. Lee, I., & Shin, Y.J. (2018). Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. Business Horizons, 61(1), 35–46.
9. Chen, L., & Li, X. (2019). Open Banking and Fintech Platforms in Asia: Strategic Positioning and Consumer Trust. Asian Journal of Finance & Economics, 11(3), 77–92.
10. Huang, Y. (2022). Digital banking in China: Lessons for emerging economies. China Economic Review, 76, 101–118.

11. Vives, X. (2019). Digital Disruption in Banking: The Role of Regulation and Competition. Oxford University Press.
12. Zetzsche, D.A., Buckley, R.P., & Arner, D.W. (2020). The Rise of Fintech: Risk, Regulation, and Financial Inclusion. European Banking Law Review, 2(1), 75–104.
13. Ayadi, R. (2022). Open Banking and consumer protection in the EU: What remains to be done?. CEPS Policy Insight No. 2022/03.
14. Johnson, K. (2023). Open Banking in the United States: Fragmented Regulation and Fintech-Driven Innovation. Journal of Financial Innovation, 5(1), 11–30.
15. Evans, D.S., & Schmalensee, R. (2019). Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. Harvard Business Review Press.
16. Gambacorta, L., Rau, R., & Zhang, J. (2021). The impact of Open Banking on competition and consumer welfare. BIS Working Papers No. 1031.
17. Allen, F., & Carletti, E. (2017). The role of banks in the digital era: Challenges and policy responses. Journal of Financial Regulation and Compliance, 25(4), 386–397.
18. <https://nbu.uz>
19. <https://bank.uz>
20. <https://cbu.uz>